



**Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning
ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati**

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: to'garak, dars, kitobxonlik, sport, tarbiya, ma'rifat, komil inson, madaniyat, islohot, targ'ibot.


Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida , vatan kelajagi bo'lgan yoshlarni ma'naviy salohiyatini yuksaltirish , ularni komil inson qilib tarbiyalashdan iborat . Bugungi kundagi olib borilayotgan targ'ibotlarning asosiy maqsadi ham yurtning kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk , aqliy salohiyatli qilib tarbiyalashga qaratilgan . Barcha ta'lim muassasalarida yangi islohotlar va rivojlanish ishlari olib borilmoqda .

Bilamizki, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar dastlabki va asosiy bilimlarni o'zlashtiradilar. Ushbu jarayonga har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi mas'uliyat bilan yondashmog'i talab etiladi. O'quvchilarni dars jarayonida va darsdan tashqari paytlarda vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etishni tizimli yo'lga qo'ymog'i lozim. Sinfdan tashqari ishlar – umumiy o'rta maktablarning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida tashkil



etiladi. Yoshlarni kelajakda o'z o'rnini topishida hamda komil inson sifatlarini shakllanishida muhim omil vazifasini o'taydi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning ta'limiy sifatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Bunday mashg'ulotlar boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari vaqtda o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi. Bu turdagi mashg'ulotlarni har bir o'qituvchi o'zining ijodkorligi va kreativligini uyg'unlashtirgan holda tashkil etadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi bilan bir qatorda, ularning aqliy, intellektual sifatlarini ham shakllanishiga turtki bo'ladi. Sinfdan tashqari ishlarning aksariyat shakllari barcha fanlardan tashkil etilgan to'garaklar, maktabda tashkil etiladigan tadbirlar, munozara va tanlovlar, sport musobaqalari, kitobxonlik kechalari, hunarmandchilik va boshqalarni keltirish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarni afzallik jihatlari shundaki, bolani shaxs sifatida shakllanishida hamda jamoat orasida o'z fikrlarini erkin bayon etishida ham ko'mak beradi. O'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi.





1-rasm. To'garak mashg'ulotlarining turlari

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar har bir o'quvchining o'z qiziqishlari va xohishlariga qarab tashkil etiladi. "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar" konsepsiyasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993- yilda tasdiqlangan. Har bir pedagog sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda, mas'uliyat bilan yondashmog'i, o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda o'z hissasini qo'shmog'i zarur hisoblanadi. Maktabda va sinfdan tashqari tashkil etilgan jarayonlarda o'quvchilarning bir-birlariga bo'lgan hurmati jamoada shakllanib boradi. Shu bilan bir qatorda, yoshlarning kelajakda egallamoqchi bo'lgan yo'nalishlariga bosqichma bosqich tayyorlab borishga ko'mak beradi. Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar o'rtasida fikr almashinuv jarayoni yuzaga keladi. Sog'lom raqobat shakllanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy muomala madaniyati o'rnatiladi. Sinfdan tashqari vaqtlarda tashkil etilgan barcha jarayonlarda o'quvchi tarbiyasi to'ldirib boriladi. Ularning dunyoqarashi shakllanishida, axloqiy sifatlarni to'la namoyon bo'lishida muhim omil vazifasini bajaradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sinfdan tashqari jarayonlarga barcha o'quvchilarni qamrab olish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning darsda o'rgangan nazariy bilimlarini, amaliyotda qo'llay olishiga ham yordam beradi. Amaliy jarayonda egallangan yangi bilimlar, o'quvchilarda malaka va ko'nikmani hosil qiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar maktablarda tizimli yo'lga qo'yilsa, bilim sifati ham ancha foizga yuqorilaydi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda nafaqat bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar balki, sinfdagi iqtidorli o'quvchilar mashg'ulotlarga qatnashib, o'z bilimlarini yanada mustahkamlashga erishishlari mumkin. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etguncha, har bir pedagog birinchi navbatda sinfdagi o'quvchilarning qiziqishlari bilan yaqindan tanishishi zarur. O'quvchilarning qaysi



soha bo'yicha qiziqishlarini aniqlagandan so'ng esa, o'sha yo'nalish bo'yicha yo'naltira bilishi, ularga to'g'ri va kerakli maslahatlar berishi nazarda tutiladi.

Umumiy qilib aytganda, sinfdan tashqari ishlardan kutilgan asosiy natijalar, yoshlarni bilim salohiyatini yanada oshirish, ularni vatan ertasi uchun o'z hissasini qo'shadigan barkamol avlodni komil shaxs qilib tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, sinfdan tashqari ishlar boshlang'ich ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich ta'lim har bola hayotida uning ertasi uchun qo'yiladigan mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Bola yoshligidanoq bilimga tashna bo'lsa, kelajakda yurt koriga yaraydigan, jamiyatga foydasi tegadigan shaxs bo'lib voyaga yetadi. Ta'lim tizimimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va targ'ibotlar yoshlar siyosatiga qaratilgan. Yoshlardan talab etiladigan bitta talab esa, faqat va faqat tinimsiz izlanishda bo'lish, o'z bilimlari va malakalarini oshirib borishlari talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidova Gavhar "Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish" o'quv qo'llanma
2. Qorayev S.B, Janbayeva M.S. "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish". Academic research in educational sciences, 2 (4)
3. Tilakova M.A, Qorayev S.B "O'quvchilar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar"
4. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch " asari
5. Ziyonet tarmoqlari